



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri, dotsent (PhD)
gulchexrasharipboyevna81@gmail.com*

O'QITUVCHINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH OMILLARI

Annotatsiya. Insondagi mavjud individual qobiliyatlar jamiyatdagi kasbiy samaradorligi natijasida yuzaga chiqadi. Rivojlanish uzoq muddatli bo'lib, inson umri davomida bunday jarayon ichida shakllanadi. Ushbu maqolada davr o'zgarishi bilan o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar, o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, xususan, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish tuzilmasi yaratilgan. Tuzilma tahlili me'yoriy hujjatlar va tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: kasbiy rivojlanish, metodologik asos, ilmiy-nazariy qarashlar, ehtiyoj, kasbga munosabat.

ФАКТОРЫ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧИТЕЛЯ

Аннотация. Существующие индивидуальные способности человека проявляются как результат профессиональной эффективности в обществе. Развитие процесс длительное и формируется в течение всей жизни человека. В данной статье разработано структура саморазвития и достижения успеха в профессиональной деятельности учителя в условиях быстроизменяющихся требований к нему. Анализ структуры обосновывается нормативными документами и научно-теоретическими взглядами исследователей.

Ключевые слова: профессиональное развитие, методологическая основа, научно-теоретические взгляды, потребность, отношение к профессии.

THE FACTORS OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHERS


Annotation. Individual abilities in a person emerge as a result of professional efficiency in society. Development is a long-term process and unfolds throughout person's life. This article discusses the demands placed on educators with changing times, self-improvement, self-development, especially the creation of a structure for success in professional activities. The analysis of the structure is explained with the scientific-theoretical views of experts and researchers.

Keywords: professional development, methodological basis, scientific-theoretical views, demand, relevance to profession.

KIRISH. Ilm-fan va iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, barcha soha mutaxassislarining kasbiy malakasi va shaxsiy resurslariga bo'lgan talablarning o'sishi psixologik-pedagogik fanlar, ta'sir kuchi, o'qitish metodikasi imkoniyatlarini inson hayotining turli sohalarida kengroq va har tomonlama foydalanishga o'tishni talab qiladi. Bugungi kunda kasbiy faoliyatini shaxsiy rivojlanish va hayotda muvaffaqiyat qozonish "Makoni", deb biladigan o'qituvchilar soni tobora ko'payib bormoqda, ular psixologik-pedagogik va metodik yordamga muhtojliklarini anglab yetmoqdalar. Bunday qo'llab-quvvatlanishga bo'lgan ehtiyoj kasbiy niyatni shakllantirish, kasb tanlash sharoitida paydo bo'ladi va shaxsning butun kasbiy hayoti davomida dolzarb bo'lib qoladi.

TADQIQ VA TALQIN. O'qituvchilarga kasb doirasida ko'maklashish nafaqat shaxsiy ahamiyatga ega, balki ko'p jihatdan ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muammo hamdir, chunki kasbiy va psixologik salohiyatni ro'yobga chiqarish, o'zini o'zi namoyon qila olish, himoya qilishni ta'minlash kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishning yakuniy natijasi bo'lgan inson faoliyatining asosiy xususiyatlari: motiv, maqsad, obyekt, tuzilish va vositalardir. Quyida o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy rivojlanishning ba'zi omillari tuzilmasini keltirish orqali tahlilga tortamiz (1-rasm).

Kasbiy faoliyat – bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat bo'lib, uni amalga oshirish maxsus bilim, ko'nikma, malakalar va kompetentlikni hamda kasbiy jihatdan aniqlangan shaxsiyat xususiyatlarini talab qiladi. Kasbiy faoliyat birinchi navbatda mehnat faoliyati bo'lsa, mehnat bu ma'lum bir natijaga qaratilgan maqsadga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatidir. Mehnatning asosiy xususiyatlari aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Zamonaviy dunyoda bir qancha kasblar yo'qolib, qandaydir yangilari paydo bo'layotgan bo'lsa-da, pedagog-murabbiylik kasbiga ehtiyoj har bir davrdan ko'ra, yuqorilashib bormoqda.



1-rasm. O'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishida uzluksiz kasbiy rivojlanish omillari

METODOLOGIK VA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI. Professorlar X.Ibraimov, M.Quronovlar tomonidan "...pedagogik faoliyat – ma'naviy, estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy kabi maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab amalga oshiriladigan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur

bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir", deya ta'riflangan[3; 29-b.]. Demak, pedagogik faoliyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini o'z ichiga qamrab oluvchidir.

Shuningdek, B.Ma'murov muallifligidagi "Umumiy pedagogika" darsligida esa rus psixologi Y.A.Klimovga tegishli quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin: u "taklif etgan tasnifga ko'ra, pedagoglik kasbi faoliyat predmeti sifatida boshqa bir inson bo'lgan kasblar, ya'ni "...inson – inson" tipidagi kasblar guruhiga kiradi. Pedagogik faoliyat burch va mas'uliyat hissi o'ta yuqori bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Pedagogik faoliyatning "...inson – inson" tipidagi boshqa faoliyat turlaridan farqli tomoni shundaki, u bir vaqtning o'zida ham qayta o'zgartiruvchi, ham boshqaruvchi kasb bo'lib hisoblanadi. Pedagog bir paytning o'zida ham shaxsning shakllanishi va qayta o'zgarishiga yordamlashishi, ham uning aqliy, hissiy va jismoniy rivojlanish, shakllanish jarayonini boshqarishi kerak [4; 8-b.].

2021-yilning 25-yanvar kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror [1] pedagog xodimlarning malakasini oshirishda, ularni kasbiy rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Qarorga muvofiq, o'qituvchilar malakasini oshirishda tabaqalashgan dasturlar asosida o'qitish tizimi joriy etiladi. Bunda xodimlar malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, psixologik tayyorgarligi, ish tajribasiga qarab tabaqalashgan holda o'qitiladi.

Ushbu qarorda maktab pedagog xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi – xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o'sib borishini, ularning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlash hamda ularni davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iboratligi ta'kidlangan.

Jumladan, uzluksiz kasbiy rivojlantirishning asosiy vazifalari:

- xodimlarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratish;
- mustaqil fikrlash ko'nikmalarini singdirish va xodimlarning qobiliyatini rivojlantirish hamda yangi bilimlar berish orqali o'z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- xodimlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish;
- ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

- umumiy o'рта ta'lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida xodimlarning kasbiy rivojlanishini, tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag'batlantirish, kabi vazifalar belgilangan [1].

Eng muhimi, o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilish natijasida ehtiyojlarni aniqlay olish lozim. Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyat. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi va faqat pul bilan ta'minlangan qismigina talabga aylanadi. Ehtiyojlar jismoniy, idrok etilgan va idrok etilmagan turlarga ajraladi. Jismoniy ehtiyojlar – bu ish o'rni va yashash joyini o'zgartirish ehtiyoji ko'rinishida namoyon bo'lsa, idrok etilgan ehtiyojlar – mavjud bizga yoqadigan narsalargacha siljishni bildiradi, idrok etilmagan ehtiyojlar ruhiy bo'lib, bular – ichki rag'batlardir [10; 115-b.]. Umuman olganda, ehtiyojlar – bu shunday narsalarki, ular inson ichida (ichki dunyosida) paydo bo'ladi va o'rtnashadi, har xil insonlar uchun yetarli darajada umumiy hamda har bir insonda o'z vaqtida ma'lum ko'rinishda individual paydo bo'la oladi [9]. Maqsadning ehtiyoj darajasiga chiqishi motivning kuchiga bog'liq.

Kasbiy rivojlanish muammosi XX asrning boshlarida dolzarb bo'lib qoldi, chunki bu vaqtga qadar erkin kasb tanlash ommalashmagan edi. Kishilarning kasbiy hayoti sinfiy an'analar, shuningdek, jamiyatning patriarxal usuli bilan cheklangan. Sanoat inqilobi esa mehnat bozori va yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyatning katta qismi ish topish va unga kasbiy tayyorgarlik muammosiga duch keldi. O'zgargan tarixiy vaziyat kasblar dunyosini tubdan kengaytirdi. Yangi mehnat qurollari va vositalari uzoq yillar davomida mehnat funksiyalarini yuqori sifatli va unumdorlik bilan bajarishga qodir bo'lgan malakali ishchilarni talab qildi.

Mehnatni tashkil etishda F.Teylor tizimi keng tarqaldi. Mehnat operatsiyalarini rasionalizatsiya qilishdan tashqari, xodimning kasbiy yaroqliligiga katta ahamiyat berildi. Bu davrda kasb tanlash dolzarb bo'lib qoldi va kasbiy o'zini o'zi belgilash va kasbga yaroqlilik masalalarini hal qilish amaliy psixologiyaning yangi sohasi – psixotexnikani vujudga keltirdi. Psixologiyada kasbiy rivojlanishning muhim omili bo'lgan motiv, motivatsiya va motivlashtirish tushunchalari keng tadqiq qilindi.

Psixologiyada, jumladan, S.L.Rubinshteyn tomonidan shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvori, o'zini qanday tutishi, xatti-harakatning amalga oshishi motiv tushunchasi bilan bog'lab talqin qilinadi. Motiv yaqqol faoliyat nuqtayi nazaridan qaralib, unga ehtiyojli yondashuvi mazkur nazariyaning yanada boyishiga sabab bo'ldi. Olim motivning psixologik mohiyatini izohlar ekan, motivni inson faoliyatining

manbasi bo'lgan va unga undab turgan jonkuyarlik, deb atagan [11]. Bu holatda motivni uzluksiz kasbiy rivojlanishning eng jihati sifatida qayd etish mumkin.

Shu o'rinda pedagogning kasbiy rivojlanishini aniqlash omilini ham ko'rib o'tsak, kasbiy rivojlanish jarayonida ikki xil qarama-qarshilik paydo bo'ladi:

- 1) shaxs va hayotning tashqi sharoitlari o'rtasida;
- 2) intrapersonal.

Kishining rivojlanishini belgilovchi asosiy qarama-qarshilik – bu shaxsning mavjud xususiyatlari, fazilatlari va kasbiy faoliyatning obyektiv talablari o'rtasidagi ziddiyatning mavjudligi bilan izohlanadi. Uning shakllanishida bosqich va funksional rivojlanish, deb ataladigan qismlari ajralib turadi, ular ma'lum bir bosqichda amalga oshiriladi va potensial zaxirani tashkil etuvchi sifat jihatidan yangi elementlarning miqdoriy to'planishiga olib keladi.

Mutaxassisning kasbiy rivojlanishi ichki potentsiallarni yaratish shaxsning ijtimoiy-kasbiy guruhlar va mehnat vositalari bilan faol o'zaro ta'siri natijasidir.

Ta'lim, kasbiy bilim va ko'nikmalar, umumiy hamda maxsus qobiliyatlar, ijtimoiy ahamiyatga ega va kasbiy muhim fazilatlar mutaxassisning kasbiy rivojlanish salohiyatini tashkil qiladi. Potensialni ro'yobga chiqarish esa ko'plab omillarga bog'liq:

- insonning biologik-jismoniy holati;
- ijtimoiy vaziyat;
- kasbiy faoliyatning tabiati;
- shaxsning faolligi;
- uning o'zini o'zi rivojlantirish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoji;
- hayotiy maqsadlarning mavjudligi.

Ammo o'qituvchining kasbiy rivojlanishdagi yetakchi omili – bu kasbiy faoliyat bilan belgilanadigan, yangi xususiyatlar va fazilatlarni paydo qiladigan sabab unga qo'yiladigan obyektiv talablar tizimi hisoblanadi. Uni amalga oshirish usullarini moslashtirish yoki qayta qurish, yetakchi faoliyatga munosabatni o'zgartirish pedagogning rivojlanish bosqichlarini belgilaydi. Kasbiy malaka oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy-kasbiy guruhlar va o'qituvchining o'z faoliyati ham muhimdir. Uning subyektiv faoliyati doimiy ustunlik qiladigan ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar, yo'nalishlar va boshqa tizimlar bilan belgilanadi. Ilmiy adabiyotlarni o'qish kasbiy rivojlanishni kasbiy yo'nalish, kompetensiya, ijtimoiy ahamiyatga molik va kasbiy salohiyatni oshiradigan fazilatlarni shakllantirish va ularning integratsiyasi, doimiy kasbiy o'sishga tayyorlik, faoliyatni yuqori sifatli va ijodiy bajarishning maqbul usullarini izlash sifatida aniqlashga imkon berdi. Kasbiy rivojlanish shaxsga zaruriy vaqtda qo'llaniladigan ijtimoiy ta'sir ko'rsatish usullari to'plamidan foydalanishni o'z ichiga oladi: shu jumladan, muhim bilim, ko'nikmalar, fazilatlar,

xatti-harakatlar shakllari va kasbiy faoliyatni amalga oshirishning individual usullari, turli xil kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan (kognitiv, ta’lim, kasbiy va boshqalar) faoliyat tizimini shakllantirish.

XULOSA. Umuman olganda, o‘qituvchi bir paytning o‘zida boshqa bir shaxsning hayotida rol o‘ynash bilan birga o‘zining rivojlanish dasturini aniq belgilashi, unga ko‘ra o‘zi harakatlanishi va o‘quvchilarni ham shu usulda tarbiyalashi zarur bo‘ladi. Respublikamiz maktab ta’lim tizimida va malaka oshirishda olib borilayotgan islohotlar har bir pedagog uchun o‘z ustida ishlash imkoniyatini oshirishga qaratilganligi bilan quvonarlidir. Xuddi shu sharoitda o‘qituvchining kasb standartini amaliyotda qo‘llashning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish uning kasbiy rivojlanishida yetakchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4963-son Qarori. – QHMMB, 26.01.2021. 07/21/4963/0064-son.
2. Fayzullayeva G. S. P5BL VOSITASIDA O‘QITUVCHILARDA KOGNITIV JARAYONLARNI FAOLLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK TALQINI //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2023. – C. 152-155.
3. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. – T., “Sahhof”, 2023. – 416 b.
4. Ma’murov B. Umumiy pedagogika. Darslik: barcha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun. – T.: 2020. – 118 b.
5. Sharipboyevna F. G. P5BL YONDASHUVI VOSITASIDA SEMINAR VA MAHORAT DARSLARINI TIZIMLI TASHKIL ETISH //Современное образование (Узбекистан). – 2023. – №. 1 (122). – С. 30-37.
6. Amrilloevich I. A. Advanced training of teachers as a way to improve pedagogical knowledge //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2015. – Т. 2. – №. 13 (eng). – С. 232-233.
7. Amrilloevich I. A. COGNITIVE MOBILITY OF THE TEACHER: APPLICATION IN PEDAGOGICAL PRACTICE, CONTENT, ESSENCE AND STRUCTURE //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
8. Amrilloevich I. A. Factors Affecting Teachers' Subjective Expectations from Continuous Professional Development //RES MILITARIS. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – С. 3877-3884.

9. Виханский О.С. Наумов А.И. Менеджмент: учебник -4-е изд., перераб. И доп. – М.: Экономика, 2003. – 528 с.

10. Петров В.В. Теории мотивации: Электронный учебник. – М.: ИД РАВНОВЕСИЕ, 2006. Горосян Л.Д. Оптимизация самостоятельной работы студентов бакалавриата при обучении чтению на основе электронно-методического сопровождения (английский язык, экономический профиль): дисс... канд. пед. наук. – Москва, 2014. – 193 с.

11. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.